ISSN 2181-8258
DOI prefiksi: 10.69691
ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

# TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

2 (65)
2025

**TAMADDUN NURI jurnali**

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi
“Tafakkur-tamaddun” OOO
“Beruniy avlodlari” jamoat fondi

**HAMKORLARIMIZ:**
O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Urganch davlat universiteti

**TAHRIR HAY’ATI:**

**BOSH MUHARRIR:**
Munavvara KURBANBAYEVA

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
Anvar ALLAMBERGENOV

**TEXNIK MUHARRIR:**
Islombek ABDIKHAKIMOV

**BO‘LIM MUHARRIRI:**
Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d.,prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)
Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD) (AQSh)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig‘ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof. (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.
Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru, (AMEA) müxbir üzvü (Ozarbayjon)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.
Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.
Zarifboy DO‘SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , f.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n. ( Rossiya Federatsiyasi)
Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent
Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)
Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)
Vahob RAHMONOV, f.f.n.,dots
Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)
Qozoqboy YO‘LDOSHEV, p.f.d.,prof.
Safo MATJONOV, p.f.d., prof.
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d (PhD)

*BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:*

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**
Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O‘rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV

**Adabiy maslahatchi:**
Guliston MATYOQUBOVA

**Rassom:**
Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:** G‘iyosiddin O‘NAROV

**Manzilimiz:** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy tumani.
Web-sayt: https://jurnal.tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Qog‘oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog‘i 28.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.
Bosishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy. 2025-yil, 2-son (65).
**Ushbu son** “Tamaddun nuri” jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №29.

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Tamaddun nuri”dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir. Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a’zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

**10.69691 DOI**

**ISSN-2181-8258**

**Impakt faktor-9.347**

**SLIB.UZ**

journal THE LIGHT OF CIVILIZATION
Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine
**Founders:** Beruniy District Municipality
"Tafakkur-tamaddun" OOO
Public Foundation "Descendants of Berunius"
**Our colleagues**: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division
Karakalpak State University
Urgench State University
**EDITORIAL BOARD:**
**EDITOR-IN-CHIEF:**
Munavvara KURBANBAEVA
**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
Anvar ALLAMBERGENOV
**TECHNICAL EDITOR:**
Islombek ABDIKHAKIMOV
**SECTION EDITOR:**
Mukaddas KURBANBAEVA
Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.
Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, phil.sc.n. (PhD) (India)
Azizulloh AROL, phil.sc.n. (PhD) (USA)
Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)
Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.
Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.
Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.
Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,
(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)
Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.
Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.
Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)
Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil ( Russiya)
Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.
Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)
Azamat PRIMOV, can. of phil.sc, dots (PhD)
Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.
Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof. (Ozarbayjon)
Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.
Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.
Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)
Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Odilbek RADJAPOV, phil.sc..d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)
Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)
Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)
FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:

**COMMUNITY COUNCIL:**
Sirojiddin SAYID
Muhammad Ali
Kengesboy KARIMOV
Iqbal MIRZA
Kurban SHONIAZOV
Orozboy ABDURAHMANOV
Muratboy JUMANOV

**Literary Advisor:**
Gulistan MATYOQUBOVA
**Painter:**
Alibek ABDURAHMANOV
**Page editor**:
Ghiyaziddin O'NAROV
Our address: Republic of Karakalpakstan,
Beruni district.
Website: https://tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram channel: https://t.me/tamaddunnuri
Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.
Paper size 60x84 ⅛. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.
It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.
Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2025, No.2 (65).
This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #29. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

"Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.
Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".

**Crossref DOI-10.69691**

**ISSN-2181-8258**

**Impakt faktor-9.347**

**SLIB.UZ**

# MUNDARIJA

## 07.00.00 - "TARIX"

**Наврузов Сапарбой.** Хива рус босқини арафасида...9
**Матякубов Шоназар Собирович.** Огаҳийнинг "Гулшани давлат" тарихий асарида Саййид Муҳаммадхон хонлик даври воқеалари тафсилотлари...21
**Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich.** Sug'orish tizimi tarixi haqida qaydlar (Yahyo G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asari misolida)...38
**Омонов Анварбек Муродович.** Селунгур ғор макони палеофаунаси тарихига доир...93
**Jumayeva Shoxida Choriyevna.** Chorvachilik va qishloq aholisining ijtimoiy hayoti: muammolar va istiqbollar...103
**Matyakubova Shahodat Xamidjanovna.** Quyi Amudaryo hududida ilk o'rta asr sug'orilish tarmoqlari tarixiga doir ba'zi mulohazalar...115
**Rajabova Zilola Kahramon qizi.** XIX asrda O'rta Osiyoda aloqa tizimining shakllanishi va rivojlanish tarixi...118
**Tishabayev Alisher Maxamatdjanovich.** O'zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sport moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi (1991-2019)...124
**Begaliyev Javlonbek Rayimnazarovich.** O'zbekistonda mualliflik huquqlarini himoya qilish borasidagi muammolar tarixi (1970-1990-yillar misolida)...158
**Исмоилова Парвина Хамиджон кизи.** Русские банки в туркестане: возникновение и последствия в конце XIX - начале XX века...204
**Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li.** Xorazm vohasida ilk urbanistik jarayonlarning tadqiqoti muammolari...233
**Usmanova Inobat Ibragimovna.** Janubiy orolbo'yi havzasida bronza davridagi turar joylarining arxeologik tadqiqotlari...245
**Raxmatov Murod G'aybullayevich.** XX asr boshlarida turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining g'oyaviy va nazariy qarashlari...248
**Teshayeva Yulduz Hakim qizi.** Ayollarning ilm-fandagi rolini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar...271
**Allamuratov Shuxrat Ashurovich.** Termizning Amudaryo orqali savdo aloqalari (XIX asrning oxiri - XX asrning boshlari)...275
**Xo'janazarov Absalom Ziyadullayevich.** Surxondaryo viloyatida koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq ishlar...279
**Saparbayev Bunyodbek Xurrambek o'g'li.** Tarixchi Munis va Ogahiylarning "Firdavs ul-iqbol" asarining Xiva xoni Muhammad Rahimxon I davrida (1806-1825) Xiva xonligi va Rossiya munosabatlarini tadqiq qilishdagi ahamiyati...316
**Atajanov G'ulomjon Urinboyevich.** Sayfiddin Qutuz tarixining yangi sahifalari...324
**Матёқубов Алишер.** XX асрнинг 20-йиллари биринчи ярмида Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг баъзи масалалари...343
**Джуманиязова Фируза Джуманазаровна.** Активное участие женщин Хорезма в оказании помощи фронту...352
**Бабожонов Дилмурод Комилович.** Хива "Ичан-қалъа" давлат тарихий-меъморий музей қўриқхонасининг фаолияти...356

## 09.00.00 - "FALSAFA"

**To'xtasinov Ro'zimuhammad Nurmuhammad o'g'li.** Ibn Sinoning "Ixlos" surasi tafsiridagi falsafiy qarashlari tahlili...15
**Tursinkulov Nurali Anarbayevich.** Islom va erkinlik: falsafiy va amaliy jihatlar...42
**Samadov Jonmurod.** Jaloliddin Rumiyning gnoseologik qarashlari...52
**Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o'g'li.** Abul Muin Nasafiyning olam haqidagi falsafiy qarashlari...80
**Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich.** Tinchlikparvarlik axloqiy tamoyili va uning O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'rni...83
**Akmal Axmedovich Axmedov.** Iste'molchi axloqining ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri...106
**Ne'matova Orzigul Axmedovna.** "Husni-xulq"ning tarixiy-nazariy va falsafiy talqini...169
**Raximov Xolmurod Majitovich.** Islom tasavvufida "tajalliy" tushunchasi...183
**Uzoqova Lola Abdurashitovna.** Alisher Navoiy ma'naviy merosida axloq prinsiplarini ifodalanishi...189
**Begaliyev Jo'rabek Toshbekovich.** "Osor al-boqiya" asarida antropologik masalalar tahlili...211
**Axmedova Ma'rifat Abdullayevna.** Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati...215
**Joldasbayev Oralbay Yernazarovich.** Berdaq ilmiy merosida jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlar tahlili...237
**Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich.** Yangi O'zbekistonning yoshlarida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish davr talabi...253
**Norliyev Rustam Ibragimovich.** Shaxs bioijtimoiy xususiyatlarini rivojlantirishning dialektik jihatlari...283
**Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich.** Ma'naviy marginallashuvning falsafiy jihatlari...286
**Arolova Zarina Lochin qizi.** Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda barqaror rivojlanish tendensiyalari...289
**Safarov Akbar Isakulovich**. Globallashuv sharoitida ekologik ongning transformatsiyasi va jamiyatdagi roli...292
**Axatov Lutfillo Karamatilloyevich.** Tasavvuf mohiyatining tazkiralarda namoyon bo'lishi...296
**Maxmudov Feruz Tulkinovich.** Yangi O'zbekistonda mahalla instituti faoliyati va uning istiqbollari...313
**Turabova Sevara Kattaqulovna.** Yusuf Xos Hojibning siyosiy falsafasi "uchinchi renessans" konsepsiyasi talqinida...331
**Xandamova Ma'rifat Akramovna, Jantayev Maqsud Ibragimovich.** Al-Xorazmiyning "Kitob surat al-arz" asaridagi geografik va ontologik qarashlar...334
**Isroilov Bektosh Erkinovich.** Vorisiylikka innovatsion yondashuvning ijtimoiy-falsafiy masalalari...359

Qabul qilindi: 06.01.2024 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 1/14;17

# YANGI O'ZBEKISTONNING YOSHLARIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI KUCHAYTIRISH DAVR TALABI

***Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)***

# STRENGTHENING THE IDEOLOGICAL IMMUNITY OF THE YOUTH OF THE NEW UZBEKISTAN

***Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich, Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD)***

# УСИЛЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

***Ташметов Тухтасин Худайберганович, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии (PhD)***



***https://orcid.org/0009-0009-7633-4035***
***e-mail: toshmetovtuxtasin@gmail.com***

***Annotatsiya:*** *Yangi O'zbekistonni yuksak ma'naviyatli jamiyatga aylantirish uchun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni yanada kuchaytirish, komil insonni tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng miqyosli ishlarni amalga oshirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Zero bu kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko'lamining kengayib borayotgani yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish masalasi dolzarb ekanini ko'rsatmoqda.*

***Kalit so'zlar:*** *Stretegiya, ma'naviyat, mafkura, ma'rifat, qadriyat, tarbiya, axloq, g'oya, immunitet, gumanizm, ta'lim, texnologiya, targ'ibot, global, axborot, internet, tahdid, xuruj, buzg'unchi g'oya, bunyodkor g'oya.*

***Abstract:*** *In order to transform the new Uzbekistan into a highly spiritual society, it is necessary to carry out large-scale work to strengthen the ideological immunity of young people, educate a perfect person, and form a harmonious personality. After all, it is the negative consequences of the ongoing processes of globalization, the expansion of new ideological risks and threats that indicate that the issue of strengthening ideological immunity in the formation of youth spirituality is relevant.*

***Key words:*** *strategy, spirituality, ideology, enlightenment, value, upbringing, morality, idea, immunity, humanism, education, technology, propaganda, global, information, Internet, threat, attack, destructive idea, creative idea.*

***Аннотация:*** *Для превращения нового Узбекистана в высокодуховное общество необходимо проведение широкомасштабной работы по укреплению идеологического иммунитета у молодежи, воспитанию совершенного человека, формированию гармоничной личности. Ведь именно негативные последствия протекающих процессов глобализации, расширение масштабов новых идеологических рисков и угроз свидетельствуют о том, что вопрос укрепления идеологического иммунитета в формировании духовности молодежи является актуальным.*

***Ключевые слова:*** *стратегия, духовность, идеология, просвещение, ценность, воспитание, мораль, идея, иммунитет, гуманизм, образование, технологии, пропаганда, глобальный, информация, интернет, угроза, атака, деструктивная идея, созидательная идея.*

TAMADDUN NURI

**KIRISH.** Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ma'naviy ongi darajasi bilan belgilanadi. Davlatimiz o'z taraqqiyot strategiyasining asosini ma'rifiy jamiyat qurishga qaratmoqda. Ma'rifiy jamiyat esa mustaqil fikrlovchi, ma'naviyati yuksak, o'z manfaatlarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg'un tasavvur etuvchi barkamol avlod vakillariga ehtiyoj sezadi. Shu boisdan, insoniyat yaratgan kashfiyotlarda o'zligini yo'qotish havfi, xususan, yoshlar orasida bevosita yoki bilvosita bosim ostida tobora ortib bormoqda. Shu sababli yoshlar tarbiyasi, ma'naviyati va salohiyatini yanada yuksaltirish mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "…. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talabalari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[1]. Shu ma'noda, global o'zgarishlar sharotida dunyo miqyosida bahs-munozaraga sabab bo'layotgan va yechimini kutayotgan muammolar ko'lami tobora kengayib bormoqda, jumladan yoshlar tarbiyasi. Shu jihatdan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Yangi O'zbekistonning yoshlarida mafkuravıy immunitetnı kuchaytirish strategiyasi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning[2] ilmiy-siyosiy merosida ma'naviyatning konseptual asoslari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning[3] siyosiy qarashlarida esa ma'naviyat va uning targ'iboti globallashuv sharoitiga mos talablar asosida yanada takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda faylasuf olimlari tomonidan ham tadqiq etilmoqda. Xususan, akademik E.Yusupov[4] ma'naviyat va mafkuraning o'zaro munosabati, ularning mohiyati, ijtimoiy-tarixiy mazmuni va ahamiyatini, J.Tulenov[5] ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyotni, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyevlar[6] O'zbekistonning rivojlanish strategiyasida ma'naviyatning o'rni masalasini tadqiq etganlar.

**MUHOKAMA.** Bugun komil insonni tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng miqyosli ishlarni amalga oshirar ekanmiz, biz bevosita har bir inson qalbidagi ana shu nuqtani mo'ljalga olmog'imiz lozim. Mafkuraviy immunitet yoki g'oyaviy kurashchanlik fazilati bizning nazarimizda xuddi ana shu nuqtada joylashgan. U kimdadir uyg'oq, kurashchan, behalovat u bezovta bo'lsa, kimdadir mudroq, tanbal, befarq va loqayddir. Bizning vazifamiz ana shu immunitetni uyg'otish, shakllantirish asosida jamiyat ishiga daxldor, millat taqdiriga taqdirdosh, Vatan istiqboli uchun javobgar shaxsni shakllantirishdan iborat. Buning uchun mafkuraviy immunitetning vazifasini aniqlab olmog'imiz lozim. Bizningcha, u quyidagilardan iborat: a)munosabat bildirish; b)ta'sir etish; c)yo'naltirish; d)javobgarlik hissini uyg'otish; e)daxldorlik tuyg'usini oshirish; j)safarbarlikka da'vat etish. Ana shu yo'nalishlarda mafkuraviy immunitetning vazifalari, ya'ni insonni ma'naviy-ruhiy mudroqlikdan uyg'otish, har qanday voqelikka munosabat bildira olish, unga ta'sir ko'rsatish, jamiyat va umummilliy taraqqiyot uchun javobgarlik hissini, daxldorlik tuyg'usini namoyon etish orqali o'zini o'zi umummilliy manfaat yo'lida yo'naltira olish, safarbar eta bilish fazilatlarini yorqin namoyon qilishni taqozo etadi.

Ayni paytda, mafkuraviy immunitet turli xil yot va zararli g'oyalar ta'sirlaridan biz uchun asosiy himoya vositasi hisoblanadi. Yoshlarimiz orasida mafkuraviy immunitetni shakillantiruvchi vositalar ham mavjud bo'lib, ular quydagilardan iboratdir: birinchidan, yoshlarimizni ta'limning barcha bosqichlari bilan qamrab olishni yanada oshirish; ikkinchidan, yoshlarimiz orasida tarbiyaviy jarayonlarni har doimgidan-da yuqoriroq darajaga ko'tarish; uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni targ'ibot qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish; to'rtichidan, media tarbiyani yoshlar orasida shakllantirsh, ya'ni turli xil internet ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish.

Yangi O'zbekistonni yuksak ma'naviyatli jamiyatga aylantirish uchun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish talab etiladi:

- birinchidan, mamlakatimizni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish

TAMADDUN NURI

yo'lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e'tibor qaratish;

- **ikkinchidan,** mamlakat tinchligi, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlariga asoslangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda sinovdan o'tgan milliy va jahon tajribasining samarali usullaridan keng foydalanish;

- **uchinchidan,** dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, aqidaparastlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, vandalizm, genotsid, "demokratiya eksporti", diniy ekstremizm, dogmatizm, irqchilik, kosmopolitizm, ksenofobiya, ludomaniya, mahalliychilik, millatchilik, missionerlik, natsizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", terrorizm, fashizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish;

- **to'rtinchidan,** dunyoviylik va diniylikning sog'lom muvozanatini ta'minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirish;

- **beshinchidan,** inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va tarbiyani, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yanada yuksaltirish orqali yoshlarda ta'lim olishga bo'lgan intilishni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

**NATIJALAR.** Umuman olganda, yoshlar hayot strategiyasini tanlash jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga, uning madaniyatining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish va mulkiy munosabatlar usuli, hayot darajasi va sifati, muayyan ijtimoiy qatlam va odamlar guruhiga a'zo bo'lish, muayyan tarixiy davrda jamiyatda hukmronlik qiladigan urf-odatlar, g'oyalar va qadriyatlarning ta'siri va vaqti bilan, shuningdek, yoshlar hayot strategiyasini belgilashi ularning jinsi, yoshi, etnik va milliy xususiyati, ijtimoiy holati va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega belgilariga ham bog'liqdir.

Yoshlar hayot strategiyalarini turli asoslarga ko'ra tasniflash mumkin, biroq ulardan eng asosiylari sifatida quyidagi turlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

-birinchidan, kunlik yoki kundalik strategiyalarni to'g'ri shakllantirish;

-ikkinchidan, o'z-o'zini anglash strategiyasini shakllantirish va rivojlantirish;

-uchinchidan, muvaffaqiyatga erishish strategiyasini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar hayotiy strategiyalari tegishli usullar va manbalar orqali kundalik xatti-harakatlarida, amalga oshiriladigan kelajakdagi hayot haqidagi shaxsning dinamik fikrlash tizimi sifatida ifodalanishini inobatga olsak, yoshlar hayot strategiyasini to'g'ri shakllantirish orqali ularning ma'naviy kamolotini ta'minlashga erishish mumkin. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo'ladi"[7] deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, buyuk kelajagimiz bo'lgan yosh avlodning ongi va qalbini bunyodkorlik g'oyalari bilan to'yintirishimiz lozim, agarda bu ma'suliyatli vazifani o'z vaqtida to'g'ri tashkil eta olmasak, oqibatni hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan og'ir jarohatga, tuzalmas dardga, aylanib qolishi barchamizga ayon. Shunday ekan, bugungi murakkab davrda buzg'unchi g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirlarga qarshi fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni, yot-begona buzg'unchi g'oyalarga qarshi mentalitetimiz mohiyatini ifodalaydigan sog'lom, bunyodkor g'oyalarni farqlay olish ko'nikmasini shakllantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni esa vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, elim deb, yurtim deb, yonib yashaydigan insonlar qilib voyaga yetkazish zarur.

**XULOSA.** Bugungi globallashuv davrida yoshlarimizni turli xil mafkuraviy tahdidlar ta'sirida milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga chuqurroq e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat bera olmaymiz. Ularda eng avvalo, Vatanga muhabbat, kuchli e'tiqod, urf-odat va qadriyatlarimizga sadoqat shakllanmas ekan, axborot xurujlarining ta'siriga tushib qolaveradilar. Buning uchun har qanday buzg'unchi axborotlarga qarshi kuchli immunitetni shakllantirish talab etiladi.

Umuman, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, tadqiqotning mazkur fasli bo‘yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- fikrga qarshi fikr bilan javob berish uchun har bir yosh o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishi kerak;
- yoshlar g‘oya bilan g‘oyaning farqiga borishi kerak: ma’naviyat hamda milliy g‘oyaga nisbatan ishonch va e’tiqodi esa mustahkam bo‘lishi bugungi kunning talabi darajasida doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim;
- bugungi yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun yoshlarning ma’rifati va ma’naviyati yuksak, vatanparvarlik tuyg‘usi shakllangan, milliy qadriyatlarga nisbatan hurmati barqaror bo‘lishi lozim.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 22.
2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни миллат қилишга хизмат қилсин // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Ж. 7. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 414 б; Каримов И.А. Ҳушёрликка даъват // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги мухбирининг саволларига жавоблар. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 31 б; Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 174 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –56 б; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж. 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 592 б.
4. Юсупов Э. Миллий ғоя ва мафкура: моҳияти, ижтиомий-тарихий илдизлари, аҳамияти. – Шимкент, 2001. – Б 37.
5. Туленов Ж. Маънавият ва ижтимоий тараққиёт. –Тошкент: Меҳнат, 2000. –В. 228.
6. Яхшиликов Ж., Муҳаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. – Тошкент: Чўлпон НМИУ, 2018. – 555 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 280.
8. Imamova Umida Ismoil qizi. Jamiyatda axborotning tutgan o‘rni va ahamiyati// Ta’lim tizmida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024/05, -B. 1368-1374.


TAMADDUN NURI